

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЙ МЕРОС
АГЕНТЛИГИ
ЯХЁ ҒУЛОМОВ НОМИДАГИ САМАРҚАНД АРХЕОЛОГИЯ
ИНСТИТУТИ
БУХОРО ФИЛИАЛИ**

**БУХОРО ТАРИХИ ВА МОДДИЙ МАДАНИЯТИ:
ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАР**

мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

Илмий-амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги олий таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида 2024 йилда амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Республика миқёсида анъанавий илмий-амалий (онлайн) конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди. Конференцияда иштирок этишга чорловда эълон қилинганидек, тўпламдаги мақола ва тезислар ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилди. Тўпламга киритилган материаллар мутахассисларнинг замонавий тадқиқотларини кенг илмий жамоатчилик ва ўқувчилар етказиш билан бир қаторда ёшларга Бухоро археологияси ва тарихи ҳақида билимларини мукаммал этиш, уларни ватанпарвар, маънавий жиҳатдан баркамол инсон қилиб шакллантиришга хизмат қиласи.

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мирзаахмедов Дж.К.

Тарих фанлари номзоди, доцент

ТАҚРИЗЧИЛАР:

Ниязова М.И.

Тарих фанлари номзоди, доцент

Очилов А.Т.

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Конференция материаллари Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти илмий кенгашининг 2024 йил __-майдаги йиғилиш баённомаси билан нашрга тавсия этилган.

BUXORODAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXIDAN
Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasи katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro tarixini arxeologik tadqiqotlar asosida o'rghanish, hududdagi qadimgi shaharlar Poykent, Varaxsha va ko'plab manzilgohlarda olib borilgan izlanishlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qiliungan.

Kalit so'zlar: Buxoro, tarix, arxeologiya, tadqiqot, Poykent, Varaxsha, Zamonbobo, yodgorlik.

Аннотация: В данной статье история Бухары изучается на основе археологических исследований, анализа данных исследований, проведенных в древних городах Пойкент, Варахша и многих поселениях этого района.

Ключевые слова: Бухара, история, археология, исследования, Пойкент, Варахша, Замонбобо, памятник.

Annotation: In this article, the history of Bukhara is studied on the basis of archaeological research, the analysis of data on the researches conducted in the ancient cities of Poykent, Varakhsha and many settlements in the area.

Key words: Bukhara, history, archeology, research, Poykent, Varakhsha, Zamonbobo, monument.

Kirish. Buxoro jahoning qadimiy va navqiron shaharlaridan biridir. Uning tarixi va boy madaniyati O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar o'tmishining bir bo'lagi hisoblanadi. Shaharning har bir muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil fevralida Buxoro viloyatiga tashrifi hudud tarixini maxsus o'qitish borasidagi masalaning ijobiy yechim topishiga yo'l ochdi. Buxoro vohasining qadimgi davr tarixini o'rghanishda hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati beqiyosdir. Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklarini arxeologik o'rghanish XX asrning birinchi yarmidan boshlanib, hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. L.A.Zimin, V.A.Shishkin, A.R.Muhammadjonov, Ya. G'ulomov, A. Asqarov, J.Mirzaahmedov kabi olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning voha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida egallagan salmoqli o'rni aniqlanib, to'plangan ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilib kelingan.

Ilmiy izlanishlar. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, obyektivlik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Vohada ilk shaharlaring vujudga kelishi, tabiiy iqlim sharoitlari, geografik joylashuvi Zarafshon daryosining ahamiyati bilan belgilangan. Zarafshon daryosining Xitfar, Rudizar, Qorako'ldaryo, Moxondaryo kabi irmoqlari Buxoro vohasida o'troq dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining keng yoyilishida muhim o'r'in tutgan. Akademik V.V.Bartold ta'biri bilan aytganda, Buxoro shahri dastlabki paydo bo'lgan hududini o'zgartirmasdan, hamon o'sha joyda qad ko'tarib turibdi. Aynan shunday holat Buxoro shahri hududida arxeologik tadqiqotlar olib borish ishlarini ancha murakkablashtirib yuborgan. Shunday bo'lsa-da, shaharda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar uning

qadimiyligini isbotladi. Shuningdek, o'rta asr tarixchisi Narshaxiyning Buxoro tarixiy topografiyasi yuzasidan qoldirib ketgan ma'lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z tasdig'ini topdi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va qazishmalar natijasida eng qadimgi shahar madaniyati izlariiga ega bo'lgan Poykent yodgorligi o'rganilgan. Buxoroning janubiy garbiy qismidagi Qorako'l hududiga tegishli bo'lgan Poykent shahri xalqaro savdodagi faol ishtiroki tufayli "Savdogarlar shahri" deb ham atalgan. Dastlabki ilmiy izlanishlar 1913–1916-yillarda L.A.Zimin tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, bu haqda uning qator maqola va asarlarida ma'lumotlar keltirilgan. Hududdagi izlanishlari doirasida Poykent xarobalaridan tashqari Buxoroda joylashgan arxeologik yodgorliklar hamda Romitan zaminidagi qadimgi tepalarni ham kuzatadi. [Кличев О.А. Л.А.Зиминнинг Бухородаги изланишлари // ЎзМУ хабарлари. Т. 2016. №1-2. Б. 13-15].

O'rta asrlardagi Paykendning barcha qismlari, qal'a (olovli ibodatxona va masjid bilan), I va II Shahristondagi turar-joy massivlari, janubiy shahar darvozasidagi bozor, ko'chalar tarmog'i, suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, ikkita katta imoratlar o'rganilgan. 1980-yillarda O'zFA Arxeologiya institutining etakchi ilmiy xodimi A.R.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedovlar va Ermitaj ilmiy xodimi G.L.Semyonov ishtirokida Poykentda qazishmalar o'tkazilgan. 1990-2000-yillarda O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspedisiyasi Poykent shahar xarobalarini o'rganib, ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. 2000-2002-yillarda Tayvan universiteti arxeolog aspirantlari Jon Stenli Beyker boshchiligidagi shaharning g'arbiy qismida izlanishlar olib borib, Poykentdagagi uylar Varaxsha va Afrosiyob uylaridan farqli ravishda qurilganligi aniqlangan. 2002-2004-yillarda shaharning ark qismida B.Abdullaev va N.Sobirovlar izlanishlar olib bordilar. Zamonaviy innovastiyalar yordamida keyingi o'n yil davomida Poykentda arxeologik izlanishlar samarasini sezilarli darajada amalga oshirildi.

Buxorodan 40 km shimoliy-g'arbda joylashgan Varaxsha shahar xarobasida ham dastlab XX asrning 30-40-yillarida V.A.Shishkin tomonidan keng ko'lamma arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. 1975-1977-yillarda esa A. Muhammadjonov, 1977-1979-yillarda V.Obelchenko, 1987-1990-yillarda G.V.Shishkina tomonidan Varaxsha va uning atroflarida qazishmalar olib borilgan. Mustaqillik yillarida ham Varaxsha yodgorligidagi tadqiqotlarga xorijiy davlatlarning yetuk arxeologlari jalgan etilib shahar tarixini tadqiq etish davom ettirib kelinmoqda. Varaxsha yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida shaharning madaniy qatlamlari ketma-ketligi aniqlangan. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, Varaxsha miloddan avvalgi II - asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko'targan [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-том, 2001. Б.745.]. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori nagshlar bilan bezatilgan ekan. Ko'plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, elkasidan o'q yegan arxar, yelib borayotgan jayron, bedanalar, ayol boshli baxt qushi Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog'lagan suvoriy hamda ko'pdan-ko'p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiylar va girih parchalari uchraydi. Bu ma'lumotlar jamlanib, qator olimlar tomonidan

Buxoro arxeologiya va etnografiyasiga oid kitoblar va uslubiy qo'llanmalar tayyorlangan.

Buxoroning qadimgi hududlaridan biri sanalgan Zamonbobo yodgorligida ham arxeologik dala tadqiqot ishlari olib borilgan. Qorako'l tumani markazidan 15 km shimoliy-g'arbda joylashgan Zamonbobo manzilgohida XX asrning 50-60 yillarida o'zbek arxeolog olimlari Ya.G'ulomov va A.Asqarovlar tomonidan arxeologik qazish ishlari olib borgan. Zamonbobo qabristoni va qarorgohidan topilgan ashvoyiy qoldiqlar bir-biriga juda o'xhash bo'lib, hudud aholisining asosan dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanganligidan guvohlik beradi. [Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих) - Т. 1991. Б. 25.] Chaqmoqtoshdan ishlangan qadama o'rroqlar, yorg'uchchoq bo'laklari, hovoncha dastalar va ko'mirga aylangan bug'doy, arpa donlari, sigir, qo'y, echki suyaklarining topilishi hududning dehqonlar manzilgohi ekanligini isbotlaydi. Zamonbobo hududidagi qabristonlar ochib o'rganilganda 8 qabrda juft, 28 qabrda esa toq holatdagi skelet qoldiqlari topilgan. Boshqa ikki qabrda esa katta odam skeleti bilan, yosh bola suyak qoldiqlari aniqlandi. Mozorlar oddiy chuqurlardan iborat, jasadlar qabrga bukchaytirilgan holda yonboshlatib qo'yilgan. Erkaklar qabrlaridan ko'proq chaqmoqtoshdan yasalgan o'q uchlari, nayza va paykonlar, pichoqsimon plastinkalar topilgan. Ayollar qabrlaridan qimmatbaho toshlardan yasalgan zeb-ziynat buyumlari munchoq, marjon, misdan yasalgan ko'zgular va ayol kishining haykalchasi topilgan. [H.To'rayev. Buxoro tarixi. 2020, B. 43.].

Xulosa. Buxoroda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida hududning boy tarixi va madaniy taraqqiyotini o'zida aks etgan ilmiy yangiliklar qo'lga kiritilgan. Asrlar osha ko'hna zamin bag'rida yotgan noyob topilmalar va manbalar o'rganilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etilgan. Biroq, tadqiqotlar ko'laming kattaligiga qaramay, Buxoro zamini hozirgi kunda ham arxeologik izlanishlarga muhtojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кличев О.А. Л.А.Зиминнинг Бухородаги изланишлари // ЎзМУ хабарлари. Т.2016. №1-2. - Б. 13-15.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-том. Тошкент. 2001. Б.745. .
3. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих) - Тошкент. 1991. Б. 25.
4. H.To'rayev. Buxoro tarixi. Buxoro. 2020. B. 43.

<i>Тойиров Р., Жўраев Ш.</i> Музейларни ташкил этиш ва бойитишда қазув-йиғув ишларининг аҳамияти (Бухоро музейи мисолида).....	131
<i>Савриев Ж.</i> Мустақиллик йилларида Ўрта Зарафшон воҳаси ёдгорликларини таъмирланиши ва уларнинг натижалари (Навоий вилояти мисолида).....	135
<i>Ходжаева С.</i> Бухоро воҳасидаги маданий ўзгаришлар тарихини ўрганилиши ҳақида (1985-2016 й.й.).....	142
<i>Бобоҷонов Ш.</i> Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳидаги подшоҳлар қабристонининг ўрганилиш тарихидан.....	148
<i>Равшанов Ў.</i> Бухоро музейида сакланаётган Қожарлар усулидаги кошинлари хусусида.....	153
<i>Ҳакимова Ў.</i> Бухоро Шахристонидан чиқган чақалоқ скелетлари.....	157
<i>Муродова Д.</i> Бухородаги археологик тадқиқотлар тарихидан.....	161
<i>Муродова Д.</i> Бухоро вилоят Давлат архиви манбаларининг Бухоро тарихини ёритишдаги аҳамияти.....	164